



# TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASI QARORI

*Nurafshon shahri, Bobur ko'chasi, 1-uy*

**№ 87**

**2024-yil 5-noyabr**

## **Hududiy saylov komissiyasining muhrini tayyorlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 20-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024 yil 27 maydagi 1330-son qarori bilan tasdiqlangan Hududiy saylov komissiyasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, Toshkent viloyati Hududiy saylov komissiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2024 yil 27 maydagi 1330-son qaroriga asosan Toshkent viloyati hududiy saylov komissiyasining xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatining guvohnomasini tasdiqlash uchun muhri ilovaga muvofiq shaklda tayyorlansin.

2. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish hamda muhrlarni saqlanishini ta'minlash hududiy saylov komissiyasi kotibi H.Odilov zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati Hududiy  
saylov komissiyasi raisi**



**U.Tuxtayev**

*Toshkent viloyati Hududiy  
saylov komissiyasining  
2024-yil 5 noyabrdagi  
87-son qaroriga 1-ilova*

**Hududiy saylov komissiyasining gerbli rezina muhri  
NAMUNASI**



Hududiy saylov komissiyasining gerbli rezina muhri diametri 25 mm aylana shaklda bo'lib, markazdan 8,5 mm uzoqlikda asosiy aylana va undan 1 mm masofada yana bir aylana o'tkazilgan. Ikkinchi aylana tagida aylana bo'yicha "TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY SAYLOV KOMISSIYASI" yozuvi bor. Ushbu matnning tagidan yana bir ichki aylana o'tkazilgan bo'lib, aylananing ichida O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan.